Qadimgi xorazm

Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix yo‘nalishi 33-24 guruh talabasi
Xurramova Sevinch Jamshid qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Xorazm tarixi, unda sug‘orish tizimining rivojlanishi, mudofa inshoatlarining qurilishi hamda ularning harbiy jihatdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Undan tashqari Qadimgi Xorazm yozuvining paydo bo‘lishi haqida ham ma’lumotlar mavjud.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Markaziy Osiyo, Amudaryo, O‘rta Osiyo, Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, Marg‘iyona, Girkaniya, Saranlar, Tamanaylar, Akes, D.Marvart, Tolstov, Aryanam Vayja, Ko‘zaliqir, Xazorasp, Eron, Saklar, Satrapliklar, Doro, Behistun, Qiyot, Kas, Avesto, Vara, Pil, Fir, Oxshahonqal’a, Ahamoniylar, Zardushtiylik

Abstract: This article provides information about the history of Ancient Khorezm, the development of its irrigation systems, the construction of defensive structures, and their military significance. Additionally, it contains data regarding the emergence of the Ancient Khorezmian script.

Keywords: Khorezm, Central Asia, Amu Darya, Middle Asia, Greater Khorezm, Ancient Bactria, Margiana, Hyrcania, Sarangians, Thamaneans, Akes, D. Marquart, Tolstov, Aryanam Vaeja, Kuzalikir, Khazarasp, Iran, Sakas, Satrapies, Darius, Behistun, Kiyot, Kas, Avesto, Vara, Pil, Fir, Oxshakhonqala, Achaemenids, Zoroastrianism

Аннотация: В данной статье приведены сведения об истории Древнего Хорезма, развитии в нем ирригационных систем, строительстве оборонительных сооружений и их военном значении. Кроме того, содержится информация о возникновении письменности Древнего Хорезма.

Ключевые слова: Хорезм, Центральная Азия, Амударья, Средняя Азия, Большой Хорезм, Древняя Бактрия, Маргиана, Гиркания, Саранги, Таманаи, Акес, Й. Маркварт, Толстов, Арьянам-Вайджа, Кюзели-гир, Хазарасп, Иран, Саки, Сатрапии, Дарий, Бехистун, Кят, Кас, Авеста, Вара, Пил, Фир, Акшахан-кала, Ахемениды, Зороастризм.

Xorazm vohasi-Markaziy Osiyoning qadimgi sug‘orma dehqonchilik zonalaridan biri Amudaryoning o‘ng va so‘l sohalaridagi qadimgi sug‘orib kelinayotgan yerlar qadimgi Xorazm yoki Xorazmiya deb atalgan yagona tarixiy-madaniy va geografik hududga kirgan.

O‘rta Osiyo ahamoniylar davrigacha “Katta Xorazm” va “Qadimgi Baqtriya davlati” degan davlat birlashmalari mavjud bo‘lgan. Marg‘iyona ham ahamoniylargacha o‘z shoxlariga ega bo‘lgan, degan taxminlar ham bor. Masalan migetlik Gekatiy bir qismi tekislikdan, boshqa qismi esa parfiyaliklardan sharqdagi shaharlarda istiqomat qiluvchi Xorazmliklarni eslatib o‘tgan. Keyinroq Geradot Osiyoda har tomondan tizma tog‘lar bilan o‘rab olingan tekislik mavjudligidan, tog‘ tizmalarida esa besh dara borligidan xabar beradi. Bu tekislik bir vaqtlar Xorazmliklarga qarashli bo‘lgan. U o‘sha xorazmliklar, girkaniyaliklar, parfiyaliklar, saranlar va tamanaylar chegarasida yastanib yotadi. Tekislikning adog‘idagi tog‘dan katta Akes daryosi oqib chiqadi. Daryo dastavval besh irmoqqa bo‘linib mazkur xalqlar yerlarni sug‘organ. D.Markvard keyinchalik esa S.P.Tolstov ushbu ma’lumotlarga asoslanib, bu yerda ahamoniylar davrigacha Xorazm boshchiligida qudratli “Katta Xorazm” davlati birlashmasi mavjud bo‘lgan, degan xulosaga kelishgan. Ular Xorazmning o‘zini zardusht ta’limotining afsonaviy vatani va bu ta’limot yozilgan dastlabki viloyat Aryanam Vayja bilan aynan deb hisoblashgan.

Mil avv VII-VI asrlarda Xorazm xo‘jalik, jamiyat va madaniyatida tub o‘zgarishlar yuz bergan.

Irrigatsiya-dehqonchilik xo‘jaliklari ilg‘orlik bilan rivojlangan, ulkan kanallar barpo etilgan, kulolchilik va boshqa xil kasb-hunarlar taraqqiy etgan. Bir tomondan irrigatsiya, dehqonchilik va hunarmandchilikning ikkinchi tomondan Janubiy Marg‘iyona va Baqtriyaning qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan savdo-madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida Amudaryoning Quyi oqimi Ko‘zaliqir va Xozorasp singari mikrovoha markazlari yuzaga kelib ularning negizida qadimgi Xorazm davlatchiligi kurtaklari nish urgan. Ularning orasida Ko‘zaliqir shahriston alohida ahamiyatga ega bo‘lib, keyinchalik alohida viloyat markazigina emas, balki mamlakatning siyosiy-ma’muriy markaziga ham aylanadi. Shaharning markaziy qismida joylashgan stasionlar qazish ishlari davomida ochilgan, yetarlicha rivojlangan harbiy inshoatlar va saroy binolari shundan dalolat beradi.

Xorazmning ahamoniylarga bo‘ysunishi uning siyosiy tarixida muhim voqea bo‘ldi. Shu munosabat bilan ikki xil qarash mavjud: aytim olimlar Xorazm Eron shohining oliy hokimiyatini va xiroj to‘lash shartlarini ixtiyoriy tan olgan deb hisoblashsa, boshqa olimlar saklar va xorazmiylar tobe emas, ittifoqchi hisoblanganlar deyishadi. Nima bo‘lganda ham bir narsa axamoniylar tarkibida bo‘lgan va 16 ta satraplikka kirgan. Bu haqida Doroning Behistun kitoblarida eslatilgan.

Xorazmning qadimgi poytaxti nomlarida ham ko‘plab umumiy jihatlar borligi aniqlanmoqda. Chunonchi ilmiy doiralarda keng ma’lum bo‘lgan “Qiyot”, “Kat", “Kas” nomlari qadimgi Xorazm tilidan tarjima qilinganda, ma’lumki “dashtdagi devor” ma’nosini bergan. “Avesto”dagi Vara so‘zi Pil yoki Fir so‘zlari bilan bog‘langan va qadimgi qal’alar, devorlar, istehkomlar, shahar, inshoatlari ma’nolarini bildiradi. Ushbu materiallardan kelib chiqib, qadimgi Xorazm poytaxtining nomlari bir-biriga juda yaqin xatto o‘xshash so‘zlar bilan atalgan bo‘lishi mumkinligini ham istisno etmaymiz. Shuningdek Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi poytaxti Kasning nomi Oqshahonqal’aning uzun devoridan kelib chiqgan bo‘lishi ham istisno emas.

So‘nggi yillarda Oxshoxanqal’a olib borilgan tadqiqot ishlari qal’aning suv ostida qolib ketganligini ko‘rsatmoqda. Bu mil avv IV asr boshida davlat markazini Pil bu qal’asiga ko‘chib o‘tkazilgan ehtimolini oydinlashtiradi.

Qadimgi Xorazm mudofaa inshoatlarining tipologik tasnifi salaflar tajribasida foydalanish va yangi materialni jalb etish qadimgi Xorazm mudofaa inshoatlari tasnifining yangi variantini taxmin qilish imkonini beradi. Tashqi alomatlarni hisobga olib, mudofa inshoatlarining besh asosiy tipini ko‘rsatish mumkin. Bular 1. Shahar tipidagi istehkomli manzilgohlar 2. Qal‘alar 3. Istehkomli ibodat inshoatlari 4. Istehkomli binolar yoki kazarmalar 5. Uzun devorlar

Qadimgi Xorazm yozuvi bu yozuv oromiy yozuviga juda yaqin bo‘lgan. Bu alifbo Ahamoniylar dinastiyasi davridagi klassik oromiy yozuvi tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u o‘zida qadimgi oromiy yozuvi an’analari yaxshigina saqlanib qolgan. Ushbu yozuv eramizning II asrigacha amalda qo‘llanib kelgan.

Xorazm yozuvlarini o‘qish fanga Xorazmdagi musulmon davridan oldingi zamon va zardushtiylik dini, jamiyatning tuzilishi oilalar tarkibi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tarixi to‘g‘risidagi manbaviy materiallar g‘oyat qimmatli materia berdi, Xorazmning o‘ziga xos yil hisobi Xorazm taqvimi, Xorazm tili leksikasi haqidagi ma’lumotlarni jiddiy ravishda to‘ldiradi.

Xulosa qilib aytganda Xorazm juda qadim o‘tmish tarixga ega hisoblanadi. Uning uzoq vaqtlar davomida mustaqilligini saqlab qolganligi hamda buning uchun doimiy kurashib kelgan hisoblanadi. Undan tashqari bu yerda sug‘orish tizimi ham juda yaxshi rivojlangan. Bu yerda qadimdan dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Bulardan tashqari mudofa tizimi ham mukammal bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Ular o‘sha davr uchun eng mukammal hisoblangan. Bir so‘z bilan aytganda qadimgi Xorazm uzoq yillar davomida o‘z mustaqilligini saqlab qolgan eng yirik davlat bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Asqarov "O‘zbekiston tarixi" Toshkent 1994
2. I.Mo‘minov "O‘zbekiston tarixi" Toshkent 1960
3. Y.G‘ulomov "Xorazmning sug‘orish tarixi" Toshkent 1959
4. R.Sulaymonov "Qadimgi Xorazm madaniyati" Toshkent 2000